



**O‘ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASI
IJROIYA QO‘MITASI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
QO‘SHMA QAROR**

**“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim muassasa (maktab)lari xodimlari o‘rtasida
“Sog‘lom tanda – sifatli ta’lim” shiori ostida O‘zbekiston kasaba
uyushmalari Federatsiyasi kubogi sport musobaqalarini
o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 67-maqsadida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadiganlar sonini oshirish, ta’lim muassasalari xodimlarini sport tadbirlariga keng jalb qilish, ular o‘rtasida musobaqalar tashkil qilish, sport infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash, xodimlarning jismoniy faolligi darajasini oshirish, ta’lim muassasalaridagi sport seksiyalari va to‘garaklari faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish, o‘qituvchilarning bo‘sh vaqtlarida sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratish maqsadida O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Sport vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim muassasa (maktab)lari xodimlari o‘rtasida “Sog‘lom tanda - sifatli ta’lim” shiori ostida sport musobaqalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;

“Sog‘lom tanda - sifatli ta’lim” shiori ostida sport musobaqalarini (keyingi o‘rinda – musobaqalar) o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Musobaqalar sportning mini-futbol, shaxmat, shashka, stol tennisi va voleybol turlari bo'yicha 2025-yil aprel oyida tashkil etilsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga:

ta'lim muassasalari xodimlarini sport musobaqalarida faol ishtirok etishlari, ularning salomatligini tasdiqlovchi tibbiy xulosaga ega bo'lishlari va har bir ishtirokchining sport kiyimlari bilan ta'minlanganligini nazorat qilish;

ishtirokchilarning sport musobaqalari bo'lib o'tadigan joyga yo'l harakat xavfsizligiga e'tibor bergan holda o'z vaqtida yetib kelishlarini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Sport vazirligiga:

tashkilot va muassasalar bilan birgalikda sport musobaqalari o'tkaziladigan joyni aniqlash va tayyorlash;

malakali sport hakamlarini jalb etgan holda musobaqalarning adolatli o'tkazilishini ta'minlash;

sport musobaqalariga faxriy sportchilarni, taniqli va mashhur sport ustalarini taklif etish;

mas'ul idoralar bilan hamkorlikda jamoat xavfsizligini, shuningdek, navbatchi tibbiy xizmatni ta'minlash choralarini ko'rish;

musobaqaning yakuniy bosqichi g'olib va sovrindorlarini qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash vazifalari topshirilsin.

5. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga:

sport musobaqalarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi yakunida sport turlari bo'yicha to'plagan ochkolari umumlashtirilib, eng yaxshi natija ko'rsatgan tuman (shahar) ishtirokchi (jamoalarini 30 mln. so'm pul mukofoti, medallar va **O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi** bilan taqdirlash xarajatlarini qoplash;

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi (tuman) shahar bo'linmasi kengashlariga sport musobaqalarining (tuman) shahar bosqichi g'olib va sovrindorlarini taqdirlash xarajatlarini qoplash vazifalari yuklatilsin.

6. Yoshlar ishlari agentligiga:

musobaqalarni maktab xodimlari va o'qituvchilari orasida keng targ'ib qilish maqsadida sport turlari bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish;

musobaqani tashkil etish bo'yicha alohida videoroliklar tayyorlash vazifalari yuklansin.

7. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sport vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligining hududiy kengash, boshqarma va bo'limlari 3 kun muddatda mazkur qarordan kelib chiqib, sport musobaqalarining mahalliy va hududiy bosqichlarini o'z vaqtida va sifatli hamda keng qamrovli o'tkazilishi maqsadida qo'shma qarorlarini qabul qilsinlar.

8. Tashkiliy qo'mitaga mazkur qo'shma qaror bilan tasdiqlangan Nizomga musobaqani o'tkazish bilan bog'liq zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish vakolati berilsin.

9. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sport vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligining hududiy kengash, boshqarma va bo'limlariga musobaqa jarayonlari bo'yicha alohida

videoroliklar tayyorlash hamda musobaqaning barcha bosqichlarini mahalliy va markaziy televidenie orqali keng yoritilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi o'rinbosari B.Maxmadaliev, Sport vaziri o'rinbosari A.Karimov, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari F.Boqiyev hamda Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari D.Kattaxanovlar zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasi raisi**



Q. Rafiqov

Toshkent sh.,
2025-yil "26" mart,
14-60.0-son

**O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri**



X. Umarova

Toshkent sh.,
2025-yil "26" mart,
16-8/8-son

**O'zbekiston Respublikasi
Sport vaziri**



A. Ikramov

Toshkent sh.,
2025-yil "26" mart,
15-8/8-son

**O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi direktori**



A. Sa'dullayev

Toshkent sh.,
2025-yil "26" mart,
01-07/07son

O'zbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasi, O'zbekiston
Respublikasi Sport vazirligi,
Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligi, Yoshlar ishlari agentligining
2025 yil "26" martdagi
14-60; 16-9/p; 15-2/p; 01-07/2 sonli qaroriga
1-ILOVA

**“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirligi tizimidagi ta'lim muassasa (maktab)lari xodimlari o'rtasida
“Sog'lom tanda – sifatli ta'lim” shiori ostida O'zbekiston kasaba
uyushmalari Federatsiyasi kubogi sport musobaqalarini o'tkazish
to'g'risidagi
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom sportning **mini-futbol, shaxmat, shashka, stol tennisi, voleybol** turlari bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasa (maktab)lari xodimlari o'rtasida “Sog'lom tanda – sifatli ta'lim” shiori ostida **O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi** sport musobaqalarini (keyingi o'rinlarda - musobaqa) o'tkazish maqsadi va asosiy vazifalarini, musobaqani tashkil etish va boshqarish, ularni o'tkazishga rahbarlik qilish, moliyalashtirish, shuningdek, musobaqa g'olib va sovrindorlarini taqdirlash tartibini belgilaydi.

II. Maqsad va vazifalari

2. Ushbu musobaqalarning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 67-maqsadida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish, ta'lim muassasalari xodimlarini sport tadbirlariga keng jalb qilish, ular o'rtasida musobaqalar tashkil qilish, sport infratuzilmasini yaxshilash va zarur sport inventarlari bilan jihozlash, xodimlarning jismoniy faolligi darajasini oshirish, ta'lim muassasalaridagi sport seksiyalari va to'garaklari faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish, xodimlarning bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish vazifalari ijrosini ta'minlashdan iborat.

3. Musobaqalarning vazifalari:

musobaqada ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarni ommaviy tarzda sport bilan muntazam ravishda shug'ullanishlari uchun mexanizm yaratish;

ta'lim muassasasida o'quvchilarga o'rnak bo'lish, yoshlarda sport va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantirish maqsadida hududlarda ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish orqali ta'lim

muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlardan iborat jamoalarni shakllantirish.

III. Musobaqani o'tkazish muddatlari

4. Musobaqalar sport turlari bo'yicha **uch bosqichda** o'tkaziladi.

1-bosqich: 2025-yil 1–7-aprel kunlari musobaqalarning sektor bosqichi, tuman (shahar)dagi ta'lim muassasalari to'rtta sektorga bo'lingan holda o'z sektoridagi ta'lim muassasalarining jamoalari bilan sportning har bir turi bo'yicha o'zaro bellashadi va har bir sektordan sportning har bir turi bo'yicha 1-o'rinni olgan g'olib (jamoalari) musobaqaning tuman (shahar) bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

2-bosqich: 2025-yil 10-17-aprel kunlari musobaqaning tuman (shahar) bosqichi tashkil etiladi va unda har bir sport turi bo'yicha 4 ta sektordan 1-o'rinni olgan g'olib (jamoalari) ishtirok etadi. Ushbu bosqichda 1-o'rin eganllagan g'olib (jamoalari) musobaqaning yakuniy 3-bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

3-bosqich: 2025-yil 21-26-aprel kunlari musobaqaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi tashkil etiladi va unda har bir sport turi bo'yicha tuman (shahar)da 1-o'rinni olgan g'olib (jamoalari) ishtirok etadi.

IV. Musobaqani o'tkazishga rahbarlik qilish

5. Musobaqani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari, Sport, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, bo'limlari, sport maktablari, yoshlar yetakchilari va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilaridan iborat hududiy va tuman (shahar) Tashkiliy qo'mitalari Nizomning 1- va 3- ilovalari hamda musobaqani o'tkazish tartibi 4-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Musobaqaning g'olib va sovrindorlarini aniqlash musobaqa qoidalari va mazkur Nizom asosida amalga oshiriladi.

V. Musobaqani o'tkazish va ishtirok etish shartlari

7. Musobaqada bitta ta'lim muassasasidan sportning:
mini-futbol turi bo'yicha erkaklar o'rtasida 7 nafar;
shaxmat turi bo'yicha 1 nafar erkak, 1 nafar ayol;
shashka turi bo'yicha 1 nafar erkak, 1 nafar ayol;
stol tennisi turi bo'yicha 1 nafar erkak, 1 nafar ayol;
voleybol turi bo'yicha 8 nafar ayollar, 8 nafar erkak ishtirokchilar qatnashadi.

8. Musobaqa sport turlari bo'yicha amaldagi qoidalar asosida hakamlar hay'ati tomonidan o'tkaziladi.

9. Musobaqaning 1- va 2-bosqichida har bir sport turi bo'yicha hakamlar hay'ati tarkibi tuman (shahar) Sport, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman (shahar) bo'linmalari tomonidan shakllantiriladi.

Musobaqaning 3-bosqichida Sport, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari tomonidan alohida shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

VI. Musobaqaning qoida va tartiblari

Mini futbol

10. Mini futbol bo'yicha musobaqa O'zbekiston Futbol assotsiatsiyasi tomonidan tasdiqlangan mini-futbol bo'yicha musobaqa qoidalari asosida erkak xodimlar o'rtasida o'tkaziladi.

11. Musobaqada har bir jamoadan 7 nafar ishtirokchi, delegatsiya tarkibiga 1 nafar murabbiy hamda 1 nafar jamoa rahbari kiritiladi. O'yin vaqtida 2 nafar futbolchi, 1 nafar murabbiy va 1 nafar jamoa rahbariga zahira o'rindig'ida bo'lishiga ruxsat beriladi.

Shaxmat

12. Shaxmat bo'yicha musobaqa O'zbekiston shaxmat federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan amaldagi qoidalar asosida bitta ta'lim muassasasidan 1 nafardan erkak va ayollar o'rtasida o'tkaziladi.

Shashka

13. Shashka bo'yicha musobaqa O'zbekiston shashka federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan amaldagi qoidalar asosida bitta ta'lim muassasasidan 1 nafardan erkak va ayollar o'rtasida o'tkaziladi.

14. O'yinlar olimpiya dasturi bo'yicha o'tkaziladi va mag'lub bo'lgan sportchilar musobaqani tark etadi.

15. Musobaqa g'olib va sovrindorlari yakka tarkibda (shaxsiy) hisobda aniqlanadi. Har bir ishtirokchi uchun 20 minutdan vaqt nazorati beriladi.

Stol tennisi

16. Stol tennisi bo'yicha musobaqa O'zbekiston Stol tennisi federatsiyasining amaldagi qoidalari asosida bitta ta'lim muassasasidan 1 nafardan erkak va ayollar o'rtasida o'tkaziladi.

17. Musobaqa yakkalik bahslaridan iborat. O'yinlar olimpiya dasturi (play off) tizimida o'tkaziladi. Mag'lub bo'lgan ishtirokchi musobaqani tark etadi.

Voleybol

18. Voleybol bo'yicha musobaqa O'zbekiston Voleybol federatsiyasining amaldagi qoidalari asosida o'tkaziladi.

19. Musobaqada har bir ta'lim muassasasidan 8 nafar ayol va 8 nafar erkaklar ishtirok etadi. Delegatsiyalar tarkibiga 1 nafar murabbiy kiritiladi. Musobaqa 3 ta partiyadan iborat bo'lib, 2 ta yutuqgacha o'ynaladi, tuman (shahar) va hududiy bosqichi musobaqalari guruhlariga bo'lingan holatda o'tkaziladi. Guruh bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar yarim finalda ishtirok etadi.

Bunda g'olib bo'lgan jamoalar birinchi o'rin uchun, mag'lub bo'lgan jamoalar uchinchi o'rin uchun bahslashadi.

VII. Musobaqada ishtirok etadigan jamoalar tarkibi

20. Musobaqada ta'lim muassasasida asosiy ish bo'yicha ish beruvchining buyrug'i asosida rasmiy faoliyat yuritib kelayotgan xodimlar ishtirok etishi mumkin. Musobaqada ta'lim muassasasida faoliyat yuritmayotgan ishtirokchi aniqlansa, shu zahoti uning natijalari bekor qilinadi va musobaqadan chetlashtiriladi.

21. Bir ishtirokchi bir nechta sport turlari bo'yicha musobaqada ishtirok etishi mumkin.

VIII. Musobaqaning g'olib va sovrindorlarini aniqlash va taqdirlash tartibi.

22. Musobaqaning g'olib va sovrindorlari quyidagi tartibda aniqlanadi:

- sport turlaridan shaxsiy (yakka) birinchilik yakunlari bo'yicha;
- umumjamoa hisobida.

23. Musobaqada sport turlari bo'yicha yakka va sportning o'yinli (*jamoaviy*) turlari bo'yicha g'olib va sovrindorlar quyidagicha taqdirlanadi:

Musobaqaning tuman (shahar) bosqichi g'olib va sovrindor (jamoalari O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman (shahar) bo'linmasi kengashlari, Sport bo'limlari tomonidan I, II, III darajali diplomlar va esdalik sovg'alar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g'olib va sovrindor (jamoalari O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari, Sport boshqarmalari tomonidan I, II, III darajali diplomlar, medal va qimmatbaho sovg'alar;

Musobaqaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichida ishtirokchi (jamoalari)ning har bir yutuqli o'yini uchun 1 (bir) ochko, mag'lubiyati uchun 0 (nol) ochko beriladi. Musobaqa yakunida sport turlari bo'yicha to'plagan ochkolari umumlashtirilib, eng yaxshi natija ko'rsatgan tuman (shahar) ishtirokchi (jamoalari) 30 mln. so'm pul mukofoti va **O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi** bilan taqdirlanadi.

24. Musobaqaning taqdirlash tadbirlari qoida tariqasida musobaqa yakunlangan kun tashkil etiladi.

25. Musobaqada eng ko'p sportchi (ishtirokchi) qatnashgan ta'lim muassasasi, faol ishtirok etgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari tashkiliy qo'mita tomonidan "Sportni ommalashtirishda eng yaxshi tashkilotchi" nominatsiyasi bo'yicha rag'batlantirilishi mumkin.

Shuningdek, murabbiylar, hakamlar, rahbarlik qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga Tashkiliy qo'mita va homiy tashkilotlar tomonidan sport musobaqaning nominatsiyalari bo'yicha (*g'alabaga bo'lgan irodasi uchun, ommaviy sportni rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun va boshqa*) taqdirlanishi mumkin.

IX. Musobaqani moliyalashtirish.

26. Musobaqaning barcha bosqichlarida g'olib va sovrindorlarni taqdirlash marosimini yuqori saviyada tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari, Sport boshqarmalari va bo'limlari, O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman (shahar) bo'linmasi kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

27. Musobaqa o'tkaziladigan sport inshootlari va ularni kerakli sport jihozlari, malakali hakamlarni jalb etish Sport, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari va bo'limlari tomonidan tashkil etiladi.

28. Musobaqani ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari, Sport, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari va bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

X. Talabnomalarni berish tartibi va muddati.

29. Musobaqaning bosqichlarida ishtirokchilar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq sport maktabi trenerlari va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari tomonidan har bir ishtirokchi uchun tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib (shaxsni tasdiqlovchi hujjat, 3x4 sm. hajmdagi surati, ishga qabul qilinganlik to'g'risidagi buyruq, tibbiy ko'rikdan o'tganligi va salomatligi to'g'risidagi hujjat) 2025-yil 3-aprelgacha tuman (shahar) Tashkiliy qo'mitasiga taqdim etiladi. Shuningdek, 5-aprelgacha musobaqaning tashkiliy jarayonlari (musobaqa o'tkaziladigan joy, hakamlar tarkibi, tibbiy xizmat va boshqalar) yakunlanadi.

30. Musobaqaning ishtirokchilari ro'yxati 1-ilovada belgilangan shaklda ta'lim muassasalari direktorlari va boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislari tomonidan shakllantiriladi va tasdiqlanadi.

31. Ro'yxatda o'qituvchi sportchilar, trenerlar, sport jamoalari rahbarlari bo'lishi shart (*1-ilova*).

32. Sport turlari bo'yicha talabnomalar asl nusxasi musobaqa o'tkaziladigan kuni hakamlar hay'atiga taqdim etilishi shart.

33. Musobaqa ishtirokchilari va trenerlar tomonidan musobaqa jarayonida yoki jamoa o'rtasida tartib intizom qoidalari buzilgan taqdirda, ularga nisbatan musobaqa tashkilotchilari tomonidan belgilangan tartibda tegishli choralar ko'riladi.

34. Jamoa a'zolarining yo'l harakati xavfsizligi, musobaqa o'tkazish joylarida odob axloq qoidalariga amal qilishlariga mutasaddi idoralar bilan birgalikda jamoa rahbari mas'ul hisoblanadi.

35. Musobaqa ishtirokchi (jamoalari) musobaqa boshlanishidan oldin bosh hakam tomonidan belgilangan vaqtda mandat komissiyasidan o'tishlari shart.

XI. Nizolarni hal etish.

36. Musobaqa ishtirokchi (jamoalari) tomonidan Nizom talablari buzilgan hollarda, musobaqa ishtirokchi (jamoalari)larining natijasi bekor qilinib,

u(lar) musobaqadan chetlashtiriladi.

37. Musobaqani o'tkazish jarayonida (*ishtirokchi tomonidan*) uni o'tkazishga to'sqinlik qilingan hollarda, jamoa yoki ishtirokchi tomonidan kelib chiqadigan barcha norozilik bo'yicha yozma ravishdagi murojaatlar musobaqa tugagandan so'ng 1 soat muddatda bosh hakamlar hay'atiga taqdim etilishi shart.

38. Bosh hakamlar hay'ati tomonidan norozilik bo'yicha yozma ravishda taqdim etilgan murojaatlar 24 soat ichida ko'rib chiqilib, ushbu holat bo'yicha huquqiy baho beriladi.

39. Musobaqa yakunlangandan so'ng og'zaki yoki yozma ravishdagi norozilik bo'yicha murojaatlar va har qanday shikoyatlar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

XII. Yakuniy qoidalar.

40. Musobaqaning barcha bosqichi musobaqa o'tkaziladigan hududdagi davlat tasarrufidagi va xususiy sport inshootlarida o'tkaziladi.

41. Musobaqaning barcha bosqichi davrida hudud jamoalarining sportchilari trenerlar va biriktirilgan rahbarlarining javobgarligi ostida bo'ladilar.

42. Musobaqaning har bir bosqichida ishtirok etuvchi barcha sportchilar: maxsus sport kiyimlarida bo'lishlari;

o'z raqiblariga va hakamlarga nisbatan hurmatda bo'lishlari, halol va adolatli tamoyillar asosida kurash olib borishlari, musobaqaning o'tkazish madaniyatini buzilishiga yo'l qo'ymasliklari;

hududlarda tashkil qilingan sport turlari bo'yicha musobaqa ishtirokchilari tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishlari shart.

43. Musobaqa ommaviy axborot vositalarida keng yoritib boriladi.

**“Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim”
shiori ostida Kasaba uyushmasi
kubogi sport musobaqalarini
oʻtkazish Nizomiga
1-ilova**

“KELISHILDI”
____-sonli maktab direktori

“TASDIQLAYMAN”
____-sonli maktab BKUQ raisi

(imzo) (F.I.O.)
“ ____ ” mart 2025-yil

(imzo) (F.I.O.)
“ ____ ” mart 2025-yil

Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimidagi taʼlim muassasalari
xodimlari oʻrtasida “Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim” shiori ostida Oʻzbekiston
kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi sport musobaqasida ishtirok etuvchi
____-sonli maktab jamoasining

TALABNOMASI

№	Ishtirokchilar F.I.O.	3x4 sm. hajmdagi surati	Lavozimi	Pasport maʼlumotlari, telefon raqami	Tibbiy xulosa (shifokor imzosi bilan)
Mini-futbol					
1					
2					
3					
...					
Shaxmat					
1					
2					
Shashka					
1					
2					
Stol tennisi					
1					
2					
Voleybol					
1					
2					
3					
...					
Maktab jamoasi murabbiyi					
1					

“Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim”
shiori ostida Kasaba uyushmasi
kubogi sport musobaqalarini
oʻtkazish Nizomiga 2-ilova

**Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimidagi taʼlim muassasa
(maktab)lari xodimlari oʻrtasida “Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim” shiori
ostida Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi sport
musobalarining hududiy bosqichini oʻtkazish boʻyicha namunaviy
Tashkiliy qoʻmita tarkibi**

T/r	Ismi, familiyasi va otasining ismi	Lavozimi
1.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hududiy kengash raisi, <i>Tashkiliy qoʻmita raisi</i>
2.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Oʻzbekiston Respublikasi sport boshqarmasi boshligʻi, <i>Tashkiliy qoʻmita raisi oʻrinbosari</i>
3.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi boshligʻi, <i>Tashkiliy qoʻmita raisi oʻrinbosari</i>
4.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Sport Federatsiyalari hududiy boʻlimi boshliqlari, <i>Tashkiliy qoʻmita aʼzosi</i>
5.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Hududiy teleradiokompaniyalar rahbarlari, <i>Tashkiliy qoʻmita aʼzosi</i>
6.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi qoshidagi Jismoniy tarbiya va sport-sogʻlomlashtirish boshqarmasi hududiy vakillari, <i>Tashkiliy qoʻmita aʼzosi</i>
7.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hududiy kengashi Madaniy — maʼrifiy va sport ishlari boʻlimi mudirlari, <i>Tashkiliy qoʻmita kotibi</i>

“Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim”
shiori ostida Kasaba uyushmasi
kubogi sport musobaqalarini
oʻtkazish Nizomiga 3-ilova

**Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimidagi taʼlim muassasa
(maktab)lari xodimlari oʻrtasida “Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim” shiori
ostida Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kubogi sport
musobalarining sektor va tuman (shahar) bosqichlarini oʻtkazish boʻyicha
namunaviy Tashkiliy qoʻmita tarkibi**

T/r	Ismi, familiyasi va otasining ismi	Lavozimi
1.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman (shahar) boʻlinmasi kengashi raisi, <i>Tashkiliy qoʻmita raisi</i>
2.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Sport maktabi direktori, <i>Tashkiliy qoʻmita aʼzosi</i>
3.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi boʻlimi boshligʻi, <i>Tashkiliy qoʻmita raisi oʻrinbosari</i>
4.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Maktablarning jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari
6.	<i>Lavozimi boʻyicha</i>	Yoshlar yetakchilari

**“Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim”
shiori ostida Kasaba uyushmasi
kubogi sport musobaqalarini
oʻtkazish Nizomiga 4-ilova**

**Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi tizimidagi taʼlim muassasa (maktab)lari xodimlari
oʻrtasida “Sogʻlom tanda – sifatli taʼlim” shiori ostida Oʻzbekiston kasaba uyushmalari
Federatsiyasi kubogi sport musobaqasini oʻtkazish
SXEMASI**

Bosqichlar	Tadbirlar	Masʼullar	Muddatlar
1-bosqich	Tuman (shahar)dagi taʼlim muassasalari toʻrtta sektorga boʻlingan holda oʻz sektoridagi taʼlim muassasalarining jamoalari bilan oʻzaro bellashadi.	Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman (shahar) boʻlinmasi kengashi, Sport maktab, Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi, sport maktablari, maktab direktorlari, yoshlar yetakchilari va jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari	2025-yil 7-15-aprel
2-bosqich	Musobaqaning tuman (shahar) bosqichida 4 ta sektorda 1-oʻrinni olgan har bir sport turi boʻyicha 4 nafar gʻolib (jamoalar) oʻzaro bellashadi.	Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman (shahar) boʻlinmasi kengashi, Sport maktab, Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi, sport maktablari, maktab direktorlari, yoshlar yetakchilari va jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari	2025-yil 21-26-aprel
3-bosqich	Musobaqaning hududiy bosqichida tuman (shahar)da har bir sport turi boʻyicha 1-oʻrinni olgan gʻolib (jamoalar) oʻzaro bellashadi.	Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari, Sport boshqarmasi, Maktabgacha va maktab taʼlimi boshqarmasi, sport maktablari, maktab direktorlari, yoshlar yetakchilari va jismoniy tarbiya fani oʻqituvchilari	2025-yil 4-10 may
Taqdirlash	Musobaqaning barcha turlari yakunida gʻolib (jamoalar) diplomlar, medal, kubok va esdalik sovgʻalari bilan taqdirlanadi.	Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari, Sport boshqarmasi, Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari kasaba uyushmasi tuman (shahar) boʻlinmasi kengashi	Musobaqa yakunlangan kun

O'zbekiston Respublikasi Sport
vazirligi, Maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar
ishlari agentligi, O'zbekiston kasaba
uyushmalari Federatsiyasining
2025-yil "26" martdagi 14-002, 16-9/9
15-9/9; 01-04/07 -sonli qaroriga
2-ILOVA

**“Sog'lom tanda - sifatli ta'lim” shiori ostida sport musobaqalarini o'tkazish
bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi**

T/r	Ismi, familiyasi va otasining ismi	Lavozimi
1.	Sh.Djalilov	O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi o'rinbosari, ishchi guruh rahbari
2.	R.Karabayev	O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bo'lim mudiri, a'zo
3.	Sh.Olimov	O'zbekiston Respublikasi sport vazirligi boshqarma boshlig'i, a'zo
4.	I.Xoldarova	O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining boshqarma boshlig'i, a'zo
5.	Lavozimi bo'yicha	Yoshlar ishlari agentligining boshqarma boshlig'i, a'zo
6.	J.Yaratov	O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi maslahatchisi
7.	S.Bekchanov	O'zbekiston Respublikasi sport vazirligi bosh mutaxassisi, kotib